

№2

FEVRA
2025

MUNANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan
va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



Muhandislik va Iqtisodiyot

*Elektron nashr,
341 sahifa, fevral, 2025-yil.*

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Muhandislik va Iqtisodiyot

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

- Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
- Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
- Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
- Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
- Toshkent davlat transport universiteti
- Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
- Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
- Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Turizmning zamonaviy yo'nalishlarini rivojlantirish xususiyatlari	17
Xolmurzayev Sobir Nazarovich	
Tashqi iqtisodiy sharoitlar o'zgarishining o'zbekistondagi narxlar darajasiga ta'siri.....	23
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
The main influencers of the quality assurance in tertiary education	29
Shakirova Dilfuza Tulkunovna	
Xizmat ko'rsatish korxonalarida ishchi-xodimlarni boshqarish tizimini optimallashtirish.....	35
Sultonov Sanjar Jaxongir o'g'li	
O'zbekistonda tungi iqtisodiyotni rivojlantirishning ahamiyati va dolzarbligi.....	41
Normamatov Ne'mat Daminovich	
Ta'lim menejerining professionalligini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari	45
Abdullayev O'tkir Sadullayevich	
Ekologik buxgalteriya hisobining uslubiy jihatlari.....	57
Hatidje Nasirova	
Tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishda marketing yondashuvi.....	65
Amonov Mehriddin Oromiddinovich	
Infratuzilmani rivojlantirish – mintaqalar raqobatbardoshligini oshirish drayveri sifatida	70
Sayfulina Alfira Feratovna	
Soliq nazorati jamoatchilik nazoratining shakli sifatida.....	79
Suvonov Hasan Sherboyevich	
Разработка интеллектуальной системы управления многостадийными технологическими процессами.....	84
Алишев Шеркузи Абдуманнонович	
Masofaviy xodimlarning mehnat faoliyatini rag'batlantirish tizimini rivojlantirish	91
Tolibboyev Samad Tolibboy o'g'li	
Sug'urta xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari	99
Umirov Abdusalom To'rayevich	
IoTtarmoqlari uchun optimallashtirish usullarini tahlil qilish	105
Abdug'aniyev Bekzod Burxon o'g'li	
Tarmoq xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalar va usullar	110
Raxmonkulov Feruz Pardaboyevich	
Qishloq xo'jaligi tarmog'ida innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish holatining matematik modeli.....	114
Ishniyazov Baxrom Normamatovich	
Sug'urtada anderrayting xizmatini raqamlashtirish orqali sug'urta mukofoti va to'lovlarni amalga oshirishni takomillashtirish	120
Mirzoyev Sayfullo Fayzulloyevich	
Korxonalar faoliyatini yashil obligatsiyalar orqali moliyalashtirish imkoniyatlari.....	128
Muxiddin Eshmuradov	
Aholi turmush farovonligini oshirishning inson omiliga ta'siri.....	133
Sharofiddin Ismatov Asatulloevich	
Soliq salohiyatini baholashning zamonaviy metodlari va ularning rivojlantirish istiqbollari	137
Jo'rayev Xusan Atamuratovich	



Ish o'rinlarini qonuniylashtirish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yo'llari.....	143
Dilshod To'rayev	
Davlat tashkilotlarida g'aznachilik va davlat xaridlari bilan bog'liq jarayon holatining tahlili.....	147
Mamasoliyev Abrorbek Abdug'ani o'g'li	
Iqtisodiy transformatsiyalashuv sharoitida aholi bandligini ta'minlashning ayrim masalalari.....	152
Salomat Norova	
Moliyaviy sektorni soliqqa tortish.....	159
Komolov Odiljon Sayfidinovich	
Bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirishda bojxona menejmentini shakllantirish metodikasi.....	165
Mirzaxmedova Dilafruz Farxatovna, Tuxbabayev Jamshid Sharafetdinovich	
O'zbekiston tijorat banklari tomonidan kreditlash amaliyotini rivojlantirish istiqbollari.....	171
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Mamlakatda moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashning nazariy jihatlar.....	177
Azamatov Po'lat To'liqunovich	
Surxondaryo viloyati tumanlari iqtisodiyotidagi tarkibiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	183
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalarini barqaror innovatsion rivojlantirish modellari.....	189
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Asosiy vositalarni audit obyekti sifatida tasnifi va tavsifi.....	196
Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna	
Iqtisodiyot taraqqiyotini soliqlar orqali tartibga solish va rag'batlantirishga kreativ yondashuvning samarali tadbirlari.....	201
Rajabbaeva Dildora Zakirovna	
Роль цифровизации в обеспечении экономической безопасности предприятий.....	206
Махмудова Гулжахон Немаджоновна, Жанызакова Шахноза Мажит кизи	
Transport korxonalarida xarajatlar va daromadlar hisobini takomillashtirish masalalari.....	215
Jabbarov Umarbek Rustambekovich, Rustamova Dilnura Umarovna	
To'qimachilik klasterlarining eksport salohiyatini baholash asosida iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari.....	220
Sadriddinova Nigora Khusniddinovna	
Uzum yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari faoliyatida innovatsiyalardan foydalanish darajasini baholash.....	227
Boltayev Nazarbek Narzullayevich	
Совершенствование управленческого учета в узбекистане: проблемы, интеграция и перспективы развития.....	236
Киличева Ф.Б.	
Tijorat banklari tomonidan masofaviy xizmat turlarini rivojlantirish yo'llari.....	241
Muxitdinov Ulugbek Diyarovich	
Tijorat banklari tomonidan investitsion kreditlarni rivojlantirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	246
Zaynutdinov Bunyodjon Odiljon o'g'li	
Korxonalarni inqirozga yetaklovchi omillar va ularni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar.....	255
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
Kasalliklarni erta aniqlash imkoniyatlarini oshirishda zamonaviy dasturiy ta'minotning roli.....	260
Mamatov Maxtumquli Jumanazarovich	



Qoyali zaminlarda gravitatsion to'g'onlar tasnifi	264
Maksimov Dilmurodbek Erkinjonovich	
Improvement of financing the innovation projects of business entities.....	270
Jubanova Bayramgul Aymuratovna	
Bank xizmatlarini raqamlashtirish sharoitida moliyaviy barqarorlikni oshirish yo'llari.....	278
Rustamov Eldor Baratovich	
Xarajatlar tushunchasining iqtisodiy mohiyati va hisobga olishning amaliy jihatlari.....	285
Aytimbetov Qoyshibek Orazbekovich	
Investitsion loyihalarni baholashda yuzaga keluvchi risklarni tahlil qilish va bartaraf etish yo'llari.....	291
Xurramova Madina Mansur qizi	
O'zbekistonda aholining unumli bandligi darajasini oshirishdagi huquqiy jihatlar.....	300
Qurbonov Samandar Pulatovich	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari foydasini shakllantirish va ko'paytirish masalalari	309
Saxibjonov Muzaffar Salijanovich	
Xorij tajribasi asosida mamlakatimizda moliyaviy savodxonlikni oshirish.....	316
Shamansurova Zilola Abduvahitovna	
Mamlakat milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda tarmoq va sohalarning o'rni	322
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Xudoynazarov Dilbek Baxodir o'g'li	
Korxonalarda qimmatli qog'ozlar audit masalalarini rivojlantirish	327
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Banklarda moliyaviy xavfsizlikning o'ziga xos jihatlari	335
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	



BANKLARDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li

Tashkent International University mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklari faoliyatida moliyaviy xavfsizlikka bo'lgan zaruratning vujudga kelishi va uning o'ziga xos jihatlari nisbatan ilmiy xulosalar shakllantirilgan. Tadqiqotda jahon iqtisodiyotidagi moliyaviy tendensiyalar va moliyaviy barqarorlik va bank risklari kabi ko'rsatkichlarning banklar moliyaviy xavfsizligini ta'minlashga bo'lgan zaruratni keltirib chiqarganligi va uning o'ziga xos jihatlari borasida ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Banklar moliyaviy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ayrim olim va tadqiqotchilarning ilmiy asarlari o'rganilgan va ular tizimlashtirilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, bank risklari, bank moliyaviy barqarorligi, moliyaviy xavfsizlik, rentabellik, kapital yetarliligi, likvidlik, leverej koeffitsiyenti.

Abstract: The article presents scientific conclusions about the emergence of the need for financial security in the operations of commercial banks and its specific characteristics. The study develops scientific approaches to the impact of global financial trends, financial stability, and banking risks on the necessity to ensure financial security within banks. It also reviews and systematizes the scientific works of several scholars and researchers focused on strengthening financial security in the banking sector.

Keywords: commercial banks, banking risks, financial stability of banks, financial security, profitability, capital adequacy, liquidity, leverage ratio.

Аннотация: В статье сформулированы научные выводы относительно возникновения необходимости обеспечения финансовой безопасности в деятельности коммерческих банков и её специфических аспектов. В исследовании разработаны научные подходы к оценке влияния глобальных финансовых тенденций, финансовой стабильности и банковских рисков на потребность в обеспечении финансовой безопасности банков. Изучены и систематизированы научные труды ряда ученых и исследователей, посвященные обеспечению финансовой безопасности банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, банковские риски, финансовая стабильность банков, финансовая безопасность, рентабельность, достаточность капитала, ликвидность, коэффициент левериджа.

KIRISH

Tadqiqotlardan ma'lum bo'lmoqdaki, banklarning moliyaviy xavfsizligi banklar faoliyatidagi nobarqarorlikning oldini olish bilan bevosita bog'liq ekan. Banklar faoliyatda inqirozli holatlarning vujudga kelishi va undan samarali chiqib ketish yoki uning oqibatlarini yumshatishga qaratilgan choralarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu boisdan, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashni aks ettiradigan ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va uni O'zbekiston bank tizimi,



banklar faoliyatiga muvofiqlashtirish zaruratga aylanib bormoqda. Bunda banklar faoliyatining inqirozdan oldingi va keyingi davrida vujudga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarni tizimlashtirish va ularga mos ravishda yechimlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz olimlari va tadqiqotchilari tomonidan amalga oshirilgan izlanishlarda banklarning moliyaviy xavfsizligini to'g'ridan-to'g'ri tahlil qilgan holatlarni kam uchratish mumkin. Shunday bo'lsada, banklarning moliyaviy barqarorligi va uni ta'minlashga qaratilgan tadqiqotlar turli rakurslar jihatidan ko'rib chiqilganligini qayd etish lozim. Ushbu tadqiqotlarda banklarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashning bilvosita xususiyatlari ko'rib chiqilgan va mustaqil yondashuvlar shakllantirib berilgan. Mazkur tadqiqotlarda banklar aktivlari va passivlarini samarali boshqarish, bank risklarining oldini olish, turli makroiqtisodiy salbiy ta'sirlarning o'rnini aniqlash va baholashga qaratilgan ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Banklarning moliyaviy xavfsizligini evolyusion rivojlanishida inqirozli holatlarning roli asosiy ta'sirga ega bo'lganligini inobatga olsak, turli risklar va tahdidlarni e'tiborga olgan holda amalga oshirilgan izlanishlarni o'rganish ham o'ziga xos ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu borada, ko'plab tadqiqotlarda bank faoliyati bilan bog'liq risklar yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarni tizimlashtirishga e'tibor beramiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

I.f.d. D.Toshpulatov tomonidan tijorat banklarida risklarni baholash va ularni boshqarishga qaratilgan yondashuvlarni tahlil qilishga e'tibor beradi [1]. U o'zining tadqiqotida bank risklarining klassifikatsiyasiga qaratilgan risklarni tizimlashtirib berishga e'tibor berib, kredit riski, strategik risk, reputasion risk kabilarni keltirib o'tishga harakat kiladi. Shuningdek, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning bank faoliyatiga ta'sir etishini tahlil qiladi. Unga ko'ra, 5ta eng yirik banklarning (TBTF) jami aktivlardagi ulushi qanchalik katta bo'lsa, muammoli kreditlar ham shunga mos ko'p bo'lishini, ishsizlik darajasi muammoli kreditlarga to'g'ri proporsional ekanligini qayd etib o'tadi. Shu bilan bir qatorda, inflyasiya darajasining katta bo'lishi kredit yukini kamaytirishga xizmat qilishini ta'kidlab o'tadi.

Dos. D.Nafasov o'zining tadqiqotida tijorat banklarida risklarni boshqarish amaliyotini tahlil qilishga harakat kiladi [2]. Banklarning faoliyati samaradorligini ta'minlash uchun risklarni turlari va ularni boshqarish usullarini ishlab chiqishga e'tibor qaratadi. Risklarni boshqarishga qaratilgan usullarni – riskni oldini olish, riskni me'yorlash, riskni dviersifikatsiyalash va riskdan himoyalanih kabilar bilan xususiyatlanishini ko'rsatib o'tadi. Shuningdek, valyuta kursining muntazam pasayib borishi banklarning riskka berilishini oshirishga olib kelishi, me'yordan ko'p zaxira shakllantirish foizli daromadlarning risklilik darajasini o'sishiga ta'sir etishini asoslashga e'tibor qaratadi.

Prof. M.Maxmudova tomonidan olib borilgan tadqiqotda moliyaviy risklarga nisbatan o'zining ilmiy yondashuvini shakllantirib beradi. Uning tahlillarida O'zmilliy bank va Asakabank kabi tijorat banklarining kredit operatsiyalari va ulardagi ayrim muammoli vaziyatlarga nisbatan tadqiqotlarni amalga oshiradi. Uning fikricha, kredit portfeli diversifikatsiyasini ta'minlash orqali muammoli kreditlar risklari salbiy ta'sirini oldini olishga qaratilgan g'oyani ilgari suradi [3].

R.Sultanov tomonidan ham bank risklarini aniqlash va baholashga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Uning tadqiqotlarida investision loyihalarni moliyalashtirishda banklarning roli va undagi bank risklarini tartibga solish jarayonlari tizimlashtirishga harakat qilinadi. Uning fikricha, milliy valyutaning devalvatsiyasi banklardagi risklarni oshirayotganligi, loyiha tashabbuskorlariga murakkablik tug'dirayotganligini alohida ta'kidlashga e'tibor qaratadi [4].

Banklarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda bank risklarini aniqlash va ularni baholashga qaratilgan izlanishlarda banklarning samarali faoliyatini amalga oshirish nazarda tutilganligini ko'rish mumkin.

Bizningcha, tijorat banklarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda risklarga nisbatan yondashuvlar mavjud ekanligini ta'kidlash lozim. Jumladan, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning bank faoliyatiga ta'siri, valyuta kursining o'zgarishi, kredit siyosatining o'ziga xosligi kabi jihatlar shular sirasiga kirishini ko'rish mumkin. Yuqorida keltirilgan ilmiy izlanishlar xulosalarida bank risklarini samarali boshqarishga nisbatan yondashuvlar keltirilganligini kuzatish mumkin.



Tadqiqotlarimizni davom ettirgan holda banklarning moliyaviy barqarorligiga nisbatan o'zbekistonlik olimlar tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy yondashuvlarni tizimlashtirishga harakat qilamiz.

Bu borada, prof. O.Sattarov o'zining doktorlik dissertatsiyasida bank tizimining moliyaviy barqarorligi yuzasidan tahlillarni amalga oshiradi [5]. Uning xulosalarida tijorat banklari barqarorligini ta'minlashda kapital rentabelligidan foydalanish, bank kapitali yetarliligi, joriy likvidlilik kabi ko'rsatkichlarni tahlil qilishga bo'lgan g'oyani kuzatish mumkin. Uning fikricha, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda tizimli risklarni aniqlash va baholash, makroprudensial nazoratni amalga oshirishga bo'lgan zaruratni asoslashga e'tibor beradi.

R.Bozorov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotni ham e'tiborga olish mumkin. Uning tadqiqotida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqishga e'tibor qaratadi. Uning tahlillarida bank aktivlari sifatini oshirish, muammoli kreditlarni samarali boshqarish, aktivlar rentabelligi kabilarni samarali boshqarishga qaratilgan nazariy yondashuvlarini ishlab chiqadi. Uning yondashuvlarida barqarorlik moliyaviy, umumiy, tijoriy, funksional va tashkiliy-strukturaviy barqarorlikka ajratib ko'rsatiladi. Uning ilmiy xulosalarida bank kreditlarining ta'minotida depozitlarning roli past ekanligi qayd etib o'tiladi [6].

Sh.Ubayeva tomonidan ham banklarning moliyaviy barqarorligiga nisbatan yondashuvlar ishlab chiqilgan [7]. U o'zining tadqiqotida tijorat banklarida barqarorlikni boshqaruv mexanizmlarini to'laqonli ishlashi orqali ta'minlashga qaratilgan g'oyalarini ilgari suradi. Uning tadqiqotida ham risklarga bo'lgan e'tiborni ko'rish mumkin. Ushbu riskli holatlarni baholashda DEA (Data Envelope Analysis) va CAMEL (Capital, Assets, Management quality, Earnings and Liquidity) kabi metodlarni qo'llash taklif etilgan. Uning xulosalarida bankning barqarorligini ta'minlashda muqobil bank strategiyasini ishlab chiqishda bank menejmentining tashkiliy tuzilishini ishlab chiqib, joriy etishning maqsadga muvofiq ekanligini asoslab beradi.

Banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda o'rganilgan tadqiqotlarda uning turli jihatlari qayd etib o'tilayotganligini kuzatish mumkin. Ularda keltirilgan ilmiy xulosalar asosida quyidagi yondashuvlarimizni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik:

Birinchidan, moliyaviy barqarorlik kategoriyasi ham institutsional, ham moliyaviy ko'rsatkich ekanligini qayd etish lozim.

Ikkinchidan, moliyaviy barqarorlik moliyaviy ko'rsatkich sifatida bankning rentabellik darajasining ishonchli ekanligini o'zida ifodalab beradi. Bunda aktivlar va kapital rentabelligi barqarorligi alohida xususiyatga ega ekanligini ajratib ko'rsatish mumkin.

Uchinchidan, moliyaviy barqarorlik institutsional ko'rsatkich sifatida bank boshqaruvining strategik rejalarini ro'yobga chiqarishda o'z ifodasini topadi. Bankning tuzilmaviy faoliyatini, ma'muriyatchiligini amalga oshirishda yuzaga keladigan murakkiblarni bartaraf eta olish imkoniyati moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda o'ziga xos ahamiyatga ega hisoblanadi.


To'rtinchidan, moliyaviy barqarorlik bank faoliyatidagi riskli vaziyatlarni aniqlash va uni baholash bilan bog'liq holatlarni to'laqonli amalga oshirishni nazarda tutadi. Bunda aktiv va passivlarni samarali boshqarish, to'lov qobiliyatini saqlab turish, monetar nobarqarorlik holatlariga chidamlilik darajasi bilan moliyaviy barqarorlikning xususiyatlari vujudga keladi, deb hisoblaymiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan taqqoslash, tahlil, indeksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlarimiz asosida tijorat banklari moliyaviy xavfsizligi majmuaviy xarakterdagi kategoriya ekanligini qayd etish lozim. Ushbu kategoriyani dastlabki xulosalarimizda yanada aniqroq tasavvur etish uchun uni chizmada ifodalashga harakat qilamiz (1-rasm).



1-rasm. Banklar moliyaviy xavfsizligini ta'minlashning majmuaviy ekotizimi [8].

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, moliyaviy xavfsizlik tushunchasi xatarlarni boshqarish va barqaror faoliyat olib borish tendensiyasi bilan yanada aniqroq darajada ifodalanar ekan. Unga ko'ra, moliyaviy xavfsizlikning ikkita muhim rakursdan tahlil qilish muhim ekanligini ko'rish mumkin. Shu boisdan, mazkur majmuaviy xarakterni inqirozli davr va undan keyingi davrdagi tendensiyalar bilan bog'liq holda amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bizningcha, banklarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda 1-rasmda keltirilgan majmuaviy ekotizimi muhim ahamiyatga bo'lib, ushbu ekotizim institutsional nuqtai nazardan xususiyatli hisoblanadi. Shuningdek, ushbu ko'rsatkichlarning har biri yuzasidan ma'lum bir minimal va maksimal indikatorlarning ishlab chiqilishi va joriy etilishi muhim ahamiyatga egadir.

Banklar moliyaviy xavfsizligini ta'minlashga doir evolyusion rivojlanishda xorijiy olimlar va tadqiqotchilarning roli muhim hisoblanadi. Bu borada, ingliz tilida nashr etilgan ilmiy asarlarni tizimlashtirib o'rganib chiqishga harakat qilamiz.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizningcha, banklarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda makroiqtisodiy tendensiyalarning ta'siri ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bu borada, milliy iqtisodiyotdagi to'lovsizlik muammosining mavjudligi alohida xususiyatga ega ekanligini ko'ramiz. Umuman olganda, banklar moliyaviy xavfsizligini xorijiy olimlar tomonidan quyidagi jihatlari ajratib ko'rsatilganligini kuzatish mumkin:

Birinchidan, banklarning aktivlari va passivlari o'rtasidagi nomutanosiblikning doimiy mavjudligi. Banklarning uzoq muddatli aktivlarga passivlar asosida investisiya qilishi kabilar moliyaviy xavfsizlikka jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, moliyaviy illyuziyaning iqtisodiy barqarorlik sharoitida vujudga kelishi bilan bevosita bog'lik ekanligi. Bunda iqtisodiy barqaror muhit qarz yoki kredit olishga bo'lgan moyillikning oshishiga olib kelishi bilan ifodalanadi.

Uchinchidan, olingan qarzlarini yangi qarzlar bilan moliyalashtirish amaliyotining rivojlanib borishi natijasida aktivlarning boshqarilishida muammolarni vujudga keltirib, qarz pufagini shakllantirishga olib kelishi mumkinligi bilan izohlashimiz mumkin.

Banklarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda tashqi omillarning inobatga olinishi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin. Biz tadqiqotlarimizni davom ettirgan holda pul-kredit siyosatining tuzilishi nuqtai nazaridan ham ayrim ilmiy xulosalarni tizimlashtirishga harakat qilamiz.

Qayd etish lozim, banklar moliyaviy xavfsizligi global tadqiqotlarda ham ko'proq likvidlik, nazorat organlari zaifligi va ishonchsizlik kabi doimiy xususiyatdagi omillar bilan bog'liq holda tushuntirilgan. Bu esa, banklarning moliyaviy xavfsizligi iqtisodiy, noiqtisodiy va makro-mikro darajadagi moliyaviy siyosatning ta'sirini inobatga olgan amalga oshirilishi lozim bilan ifodalashga olib kelar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Toshpulatov D.A. Tijorat banklarida risklarni baholash va boshqarishni takomillashtirish: i.f.d. ... avtoreferati. – T.: TDIU, 2022. – 78 b.
2. Nafasov D. B. Tijorat banklari risklarini boshqarishning nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirish: i.f.b.f.d. ... avtoreferati. – T.: TMI, 2017. – 49 b.
3. Maxmudova M.Q. Tijorat banklari faoliyatida risklarni boshqarish usullarini takomillashtirish: i.f.b.f.d. ... avtoreferati. – T.: TDIU, 2020. – 63 b.
4. Sultanov R.B. Investisiya loyihalarini moliyalashtirishda bank risklarini tartibga solish amaliyotini rivojlantirish: i.f.b.f.d. ... avtoreferati. – T.: TDIU, 2022. – 64 b.
5. Sattarov O.B. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish: i.f.d. ... avtoreferati. – T.: TMI, 2018. – 67 b.
6. Bozorov R.X. Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashni takomillashtirish: i.f.b.f.d. ... avtorferati. – T.: O'zR. BMA, 2020. – 52 b.
7. Ubayeva Sh.L. Tijorat banklari barqarorligini samarali boshqarish mexanizmini takomillashtirish: i.f.b.f.d. ... avtoreferati. – T.: TDIU, 2018. – 53 b.
8. Tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan

Muhandislik va Iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100